

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yig'ilish



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ushbu oliy o'quv yurti rahbariyati, professor-o'qituvchilari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishni institutning Yoshlari ishlari bo'yicha prorektori Eldor Shermonov olib bordi.



Tadbirda Mirzo Ulug‘bek tumani prokurori Farhod Bobonazarov, ushbu tuman prokuraturasi tergovchisi Davron Egamberdiyev, Mirzo Ulug‘bek tumani 5-sonli IIB boshlig‘i Nurbek Muhammedovlar ishtirok etishdi. Bugungi kunda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor vazifalardan biriga aylangan.



Shundan kelib chiqilgani holda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Quyi bug'inlarda esa ushbu ishlar huquq-tartibot idoralari tomonidan amalga oshirilmoqda. Yig'ilishda har bir kishi korrupsiyaga qarshi murosasiz bo'lishi ta'kidlandi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, institutda korrupsion holatlarga qarshi kurashish maqsadida talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib kelinadi, alohida telegramm bot kanali tashkil qilingan.



Yig'ilishda oliy ta'limning o'quv jarayonlarida ushbu holatni oldini olish, uning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik lozimligi ta'kidlandi.

Yaqinda oliy o'quv yurtlariga 2021-2022 o'quv yili uchun kirish imtihonlari boshlanadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida esa joriy yilda abituriyentlar 16 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy imtihon topshiradi. Mazkur jarayonlarni ochiq, haqqoniy, adolat mezonlari asosida tashkil etish maqsadida ijodiy imtihonlarda "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "O'zbekiston xalq hofizi" singari faxriy unvonlar sohiblari, yurtimizning taniqli madaniyat va san'at namoyondalari ishtirok etishadi.

Bundan tashqari Jamoatchilik kengashi tashkil etiladi. Ijodiy

imtihon jarayonlari abituriyentlar javob berayotgan xonalardan institut hovlisidan tashqarida o'rnatilgan televizorlarga to'g'ridan-to'g'ri ulanib, abituriyentning ota-onasi yoki qarindoshlari yaqinlarining berayotgan javoblari rangli va ovozli tarzda shu paytning o'zida kuzatib borish imkoniga ega bo'lishadi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurgan huquq-tartibot idoralari vakillari tadbir doirasida ushbu oliy o'quv yurtida talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Bu yerda faoliyat olib borayotgan sport majmuasi, suv havzasini ko'zdan kechirdi.



"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasidagi ijodiy jarayonlarni kuzatishdi.



Muhammad Yusuf nomi bilan ataluvchi ko'shkda bo'lib o'tgan muloqot chog'ida kelgusida hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar borasida fikrlashib olindi.

Matbuot kotibi